



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
**FANLAR**  
**AKADEMIYASI**



**MUZEYLAR: AN'ANA, NOVATSIYA VA  
RENOVATSIYA INTEGRATSIYASIDA**  
**xalqaro ilmiy-amaliy anjuman to'plami**

**2024-yil 1-aprel**

**TOSHKENT 2024**

UO‘K: 94:061(093)  
KBK: 63.3(5O‘zb)  
O‘61

**Mas‘ul muharrir:**

**Jannat Ismailova**, tarix fanlari doktori, professor  
**Alisher Ismailov**, tarix fanlari doktori (DSc), katta ilmiy xodim  
**Larisa Levteyeva**, tarix fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim.

**To‘plovchi va nashrga tayyorlovchilar:**

**Dilafro‘z Karimova**, t.f.b. falsafa doktori (PhD), kat.i.x.  
**Mansur Safayev**, kichik ilmiy xodim

**Taqrizchilar:**

**T.f.d., prof. B.V.Xasanov, t.f.n., kat.i.x.X.Fayziyev**

O‘zbekiston O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi  
O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi. «Muzeylar: an‘ana, novatsiya va  
renovatsiya integratsiyasida» nomli xalqaro ilmiy-amaliy anjuman  
to‘plami./**Mas‘ul muharrirlar:** J.X.Ismailova, A.F.Ismailov, L.G.Levteyeva;  
–Toshkent, 2024-yil 1-aprel. - 445 b.

Konferensiya O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar  
vazirining 2024-yil 20-martdagi «2024-yilda qo‘shimcha o‘tkaziladigan xalqaro  
va respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar to‘g‘risida»gi 76-son  
buyrug‘i bilan tashkil etilgan.

Mazkur to‘plamdan O‘zbekiston tarixi davlat muzeyida an‘anaviy tarzda  
o‘tkazib kelinayotgan «Muzeylar: an‘ana, novatsiya va renovatsiya  
integratsiyasida» xalqaro ilmiy-amaliy anjuman to‘plamida muzeyshunoslik, tarix,  
arxeologiya, etnologiya hamda muzeylarda innovatsion texnologiyalarni jalb  
etishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar o‘rin olgan.

To‘plam tarkibidan o‘rin olgan maqolalar mualliflarning ilmiy tadqiqot  
natijalari va shaxsiy ilmiy qarashlarini o‘zida aks ettiradi.

To‘plam O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi O‘zbekiston tarixi  
davlat muzeyi Ilmiy kengashining 2024-yil 17-apreldagi 3-son majlisi qarori  
asosida nashrga tavsiya etilgan.

**ISBN 978-9910-723-73-8**

**© O‘zR FA O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi, 2024.**

III га совға этиб топширилган. Ушбу чодирнинг Самарқанд ва Берлин музейидаги чодирлардан фарқи, ички ва ташқи деворларида кашталар тикилганлигидадир.

Ўтмишда ўлкамиздаги бутун-бутун шаҳарлар фақат маълум бир нав ва ранглардаги газламани тўқишга ихтисослашган эди. Бадий тўқувчиликнинг маҳаллий мактаблари ҳам мавжуд эди. Буларнинг бари матоларни бўйлаб санъатининг юксаклиги, маҳаллий газлама тўқиш услублари, улар қўлидан чиқадиган матолар ранги-бўёғи ва гулларининг бир-бирига ўхшашлиги, нафислиги билан ажралиб туради. Ўрта Осиё газмолларини ишлаш ва айниқса уларга гул солиш техникаси хийла мураккаб иш эди. Уларга гул-нақш солишда икки хил услуб қўлланилганки, бу эса йўл-йўл ва абр услубида тўқиқлар эди. Духоба матолар кўпинча бой кишиларнинг кийимларида қўлланилган ва асосан қалин кийимлар тикилишида ишлатилган.

#### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Наследники Шелкового пути Узбекистан. Издатели: Йоханнес Кальтер и Маргарета Павалой, Германия, 1997г.-С.-11.
2. <http://beiunsinhamburg.de>. Интернет манбаси маълумотларидан фойдаланилди.

**KLICHEV O. A.**

*Tarix fanlari doktori (DSc)*

*Buxoro davlat universiteti*

*[klichev\\_oybek@mail.ru](mailto:klichev_oybek@mail.ru)*

*(O'zbekiston)*

### **«TOJ-SULTON UQA» - DIPLOMATIK MULOQOT VOSITASI**

***Annotatsiya:** Buxoro amirligi va Rossiya imperiyasi o'rtasidagi elchilik munosabatlarida tortiqlar muhim diplomatik muloqot vositasi hisoblanadi. Mazkur izlanishimiz Rossiya Federatsiyasidagi Ermitaj davlat muzeyida saqlanib kelinayotgan Amir Muzaffar hamda Amir Abdulahad tomonidan romanovlar xonadoni vakili Aleksandr III ga diplomatik sovg'a sifatida yuborilgan «toj-sulton uqa» xususida tarixiy manbalarda mavjud ma'lumotlar tadqiqiga bag'ishlanadi.*

***Аннотация:** В посольских отношениях между Бухарским эмиратом и Российской империей дипломатические дары являются важным инструментом общения. Настоящее исследование посвящено изучению имеющихся в исторических источниках сведений о «Егрет-тадж-султан ука», отправленном в качестве дипломатического подарка Амиром Музаффаром и Амиром Абдулахадом представителю рода Романовых Александру III, хранящийся в Государственном музее Эрмитаж в Российской Федерации.*

***Annotation:** In the embassy relations between the Emirate of Bukhara and the Russian Empire, diplomatic gifts are an important communication tool. This study is devoted to the study of information available in historical sources about the «Egret-Taj Sultan uka», sent as a diplomatic gift by Amir Muzaffar and Amir Abdulahad to the representative of the Romanov family Alexander III, preserved in the State Taj Museum in the Russian Federation.*

Tadqiq etilayotgan masalaga daxldor izlanishlarimiz davomida elchilik aloqalari davrida Rossiya imperiyasi va Buxoro amirligi o'rtasida sovg'a almashinuv amaliyoti mavjudligi, buning natijasida tomonlar bir-birlariga

qimmatbaho, noyob va yagona nusxada tayyorlangan tortiqlar yuborganligi ma'lum bo'ldi. Ularning bir qismi bugungi kunga qadar O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasidagi muzeylarda saqlanib kelinmoqda.

Muzey fondlaridagi ashyolar tahlili, diplomatik tortiqlar sifatida yuboriladigan buyumlarni tanlashda xalqlarning urf-odat va ana'nalari inobatga olinganligini ko'rsatdi. Muzey ashyolari, arxiv hujjatlari va davriy matbuot materiallari bilan ishlash jarayonida amirlik va imperiya o'rtasidagi diplomatik munoqot jarayonida «toj-sulton uqa» bilan bog'liq ma'lumotlarni jamlash imkoni yuzaga keldi.

Rossiya imperiyasi tashqi siyosat arxividagi faoliyatimiz davomida 1876-yili Buxoro amiri tomonidan Imperator Aleksandr II nomiga yo'llangan sovg'alar ro'yxati borligi aniqlandi. Hujjat bilan tanishib, amirlik sovg'alari masalasiga aniqlik kiritildi. Ular orasida pat shaklida tayyorlanib, qimmatbaho toshlardan ishlangan salla bezagi – «toj-sulton uqa» ro'yxatga kiritilganligi ma'lum bo'ldi[1]. Bu turdagi buyum to'g'risida amirlik elchilarining tashriflarini yoritgan ayrim davriy matbuot materiallarida ham xabarlar uchraydi. 1889-yil mart oyida «*Правительственный вестник*» gazetasida quyidagi ma'lumotlar chop etilgan. «*Anichkov saroyining raqslar zalidagi uchta katta stol ustida amir sovg'alari joylashtirildi. Ular qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan – «sulton [uqa]», zumrad va yoqutlari bor oltin dastali qilich, ikkita feruza toshli kandakor vaza, feruza toshlar bilan bezatilgan o'nta qilich, mato parchalari hamda besh yuzta qorako'l terilaridan iborat*»[2].

Mazkur manbalarda qayd etilgan «toj»–«sulton uqa» deb ataladigan buyum Ermitaj muzeyidagi ashyo tavsiflarida «*egret*» nomi ostida saqlanmoqda. Muzeyda 1873, 1883, 1885, 1889-yillarda imperator Aleksandr II va Aleksandr IIIlarga amirlik elchilari tomonidan taqdim etilgan egretlar mavjud. Ularning bejirimligi va o'ziga xos uslubda tayyorlanganligi mahalliy zargar ustalarning mahoratidan darak beradi[3].

Muzey eksponatlari orasida XIX asrning 80-yillarida Buxoro hunarmandchilik maktabida tayyorlangan deb taxmin qilingan qimmatbaho bosh kiyim va unga kiydirilgan «toj-egret» alohida ahamiyat kasb etadi[4]. Diplomatik tortiqlar masalasiga doir manbalar orasida «*Санкт-Петербургские ведомости*»da chop etilgan maqolada ushbu buyumning imperatorga taqdim etilgani xususida quyidagilar bayon etilganligi aniqlandi.

«*[1883- yil] 13-iyun sanasida Katta saroyda Buxoro amiri vakillari va Xiva xoni Imperatorga o'z sovg'alarini taqdim etdilar. Sovg'alar juda ajoyib bo'lib uchta stolda hozirlangan edi. Ular orasida turli matolar, gilamlar, choponlar(Buxoro amiri tomonidan yuborilgan chopon marvaridlar bilan bezatilgan), Imperator uchun bosh kiyim va unga taqiladigan sulton-toj ham shular jumlasidandir*»[5].

Shu o'rinda diplomatik tortiqlar sifatida yuborilgan har bir buyum o'ziga xos ramziy ma'no kasb etishini unutmashlik darkor. Bosh kiyim va unga taqiladigan «toj»–«sulton uqa» – «egret» ham bundan mustasno emas. Ya'ni bu turga mansub sovg'alarni taqdim etishdan maqsad tortiq yo'llovchi tomon – amirning Imperatorni Rossiya imperiyasining tojdori yoki hukmdori sifatida

qadrlashining, e'tirof etishining, namunasi edi. Mazkur masalaga doir materiallarni o'rganish davomida imperator ham ushbu tortiqlarga mos javob sovg'alarni amirga yo'llaganini kuzatish mumkin. Mazkur fikrlarni «*Московский листок*» gazetasidagi quyidagi iqtibos ham tasdiqlaydi. «*Qishki saroy xonalaridagi stollar ustida imperator hazratlarining Buxoro amiriga yo'llagan sovg'alari taqdim etildi. Sovg'alar orasida: bosh kiyim [salla] uchun o'n uchta pat dastasi shaklida ishlangan va yirik olmos va katta zumrad toshlar bilan bezatilgan – sulton uqa, qopqog'ida Aleksandr III ning monogrammasi aks etgan sandiq, ...*»[6].

Diplomatik tortiqlar orasida shohona bosh kiyim va unga qadaladigan «sulton uqa»larning mavjudligi tomonlar o'zaro bir-birlarining legitim hukmronliklarini tan olganliklarini namoyon etishga xizmat qilgan degan xulosaga kelish mumkin.

1893-yil yanvarda Buxoro amirining Sankt-Peterburgga ilk tashrifi to'g'risidagi «*Новая время*» gazetasidagi maqolalarning birida Amir Abdulahadning Aleksandr IIIga taqdim etgan sovg'alari quyidagi tartibda tavsiflanadi: «*Imperator hazrati oliylari qo'shni xonaga o'tdilar. U yerda stollar ustida amir tortiqlari hozirlangan edi. Ular orasida [...], dastasi oltin va yirik olmoslar bilan bezatilgan qilich, olmos toshlar bilan bezatilgan ayollar soyaboni, qimmatbaho toshli pichoqlar, kumush sandiqlar, turli vazalar, qimmatbaho gilamlar, shuningdek, o'n yettita ot, bor edi*»[7]. Diplomatik sovg'a almashinuvida qilich, xanjarlar va belbog'larni yo'llash urf bo'lganligini ta'kidlash joiz. Eng sifatli metallardan tayyorlanib, dastasi va qini turli qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan bu buyumlar sovg'a beruvchi va qabul qiluvchi tomonning mavqei, qolaversa, ular o'rtasidagi munosabatlar darajasini belgilagan. Bu turdagi ashyolar va ular tog'risida tarixiy manbalardagi qaydlar tahlili esa keyingi nashrlar orqali ilmiy muomalaga kiritish maqsad qilingan.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash o'rinliki, bugungi kunda jahon muzeylarida saqlanayotgan amir tortiqlariga doir ma'lumotlarni davriy nashr hamda arxiv jamg'armalaridagi hujjatlarda uchratishga muvaffaq bo'lindi. Aynan, biz tadqiq etgan ashyolar xususida Rossiya imperiyasi tashqi siyosat arxivi hujjatlari hamda «*Правительственный вестник*», «*Санкт-Петербургские ведомости*», «*Московский листок*» kabi davriy nashr sahifalarida chop etilgan maqolalar aniqlandi. Ular ashyoning tarixi to'g'risida birlamchi ma'lumot taqdim eta olishi bilan ham ahamiyatlidir. Shuningdek, bu o'z navbatida muzey xodimlariga ashyo tarixi xususida atroflicha ma'lumotga ega bo'lish imkonini yaratadi

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Rossiya imperiyasi tashqi siyosat arxivi ( keying o'rinlarda -RI TSA), 161-fond, 5-ro'uxat, 1(1876)-yig'majild, 14-15-varaqlar.
2. Внутренние известия // Правительственный вестник, 1889 год 2(14) марта №48.
3. Mazkur buyumlar 44,8 sm, 53,4 sm va 55,0 smdan iborat. Ular oltin, kumush, olmos, marjon, zumrad, yoqut, dur, korud kabi qimmatbaho toshlar, pat, zar hamda ipak iplardan tayyorlangan. Ermitaj davlat muzeyi fondi, Inv. №V3-126, V3-127, V3-131. *Qarang:* <https://www.hermitagemuseum.org>

[/wps/portal/hermitage /digital -collection/ 09.+jewellery/74736, 78719, 74799.](https://www.hermitagemuseum.org/wps/portal/hermitage/digital-collection/09.+jewellery/74736,78719,74799)

4. Ermitaj davlat muzeyi fondi, Inv.№ V3-232. *Qarang:* [https://www.hermitagemuseum.org/wps/portal/hermitage/digital-collection/08.+applied+arts/75358.](https://www.hermitagemuseum.org/wps/portal/hermitage/digital-collection/08.+applied+arts/75358)
5. Хроника // Санкт-Петербургские ведомости, 1883 год 17(27) июня №159.
6. Царские подарки Бухарскому эмиру // Московский листок, 1893 год 23 января -№20.
7. Хроника // Новое время, 1893 год 5(17) января -№6054.

**ДОСПАНОВ О.**

заведующий отделом археологии  
ККГМИ им. И.В.Савицкого.  
(Нукус)

## **РОЛЬ С.П.ТОЛСТОВА И ХАЭЭ В ФОРМИРОВАНИИ АРХЕОЛОГИЧЕСКОЙ КОЛЛЕКЦИИ КАРАКАЛПАКСКОГО МУЗЕЯ ИСКУССТВ ИМЕНИ И.В.САВИЦКОГО**

***Annotatsiya:** Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi ning shakllanishi va uning keyingi faoliyati afsonaviy tadqiqotchi S.P.Tolstov nomi bilan bog'liq. Chuqur, izchil va tizimli o'rganish xalqlarning shakllanishi, madaniyati, siyosiy va iqtisodiy tizimi, tashqi dunyo bilan aloqalari haqidagi ma'lumotlarni aniqlash bo'yicha mashaqqatli ishlarni amalga oshirish imkonini berdi. Qoraqalpog'iston san'at muzeyi arxeologik kolleksiyasi asosan XAEЕ va uning izdoshlari bilan bog'liq chuqur tarixiy ildizlarga ega.*

***Kalit so'zlar:** arxeologik kolleksiya, san'at muzeyi, Savitskiy, Tolstov, Xorazm sivilizatsiyasi.*

***Аннотация:** Формирование ХАЭЭ и его дальнейшая деятельность связана с именем легендарного исследователя С.П.Толстова. Глубокая последовательная и планомерная изучаемость, дали возможность осуществить кропотливый труд по выявлению сведений о формировании народов, их культуре, политико-экономическом строе и взаимосвязях с внешним миром. Археологическая коллекция ККГМИ в большей степени имеет глубокие исторические корни, связанные с ХАЭЭ и его последователями.*

***Ключевые слова:** археологическая коллекция, музей искусств, Савицкий, Толстов, Хорезмская цивилизация.*

***Annotation:** The formation of Khorezm archaeological and ethnographic expedition and its further activities are associated with the name of the legendary researcher S.P. Tolstov. Deep, consistent and systematic study made it possible to carry out painstaking work to identify information about the formation of peoples, their culture, political and economic system and relationships with the outside world. The archaeological collection of Karakalpak Museum of Art largely has deep historical roots associated with XAEЕ and his followers.*

***Key words:** archaeological collection, art museum, Savitsky, Tolstov, Khorezm civilization.*

Сегодня, когда человечество исторически перешагивает, первую четверть XXI-го столетия многие из нас не перестают вспоминать историю Древней Хорезмской цивилизации, которое некоторое время оставалось глубокой тайной на пути становления всей человеческой культуры в Центральной Азии. Несомненно, огромную роль в раскрытии исторических

SALONIYATINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR ROLI .....	191
--	-----

**UCHINCHI SHO‘BA: MADANIY MEROSNI TADQIQ VA TATBIQ ETISH,  
SAQLASH VA TARG‘IB ETISH TAMOIILLARI**

<b>ҚЎРБОНОВА Д.</b> ГЕРМАНИЯДАГИ БЕРЛИН АМАЛИЙ САЊЪАТ МУЗЕЙИДА ЎЗБЕКИСТОНГА ОИД АШЁЛАРНИНГ ШАКЛЛАНИШИ ҲАКИДА.....	195
<b>KLICHEV O. A.</b> «ТОҶ – SULTON UQA» - DIPLOMATIK MULOQOT VOSITASI .....	201
<b>ДОСПАНОВ О.</b> РОЛЬ С.П.ТОЛСТОВА И ХАЭЭ В ФОРМИРОВАНИИ АРХЕОЛОГИЧЕСКОЙ КОЛЛЕКЦИИ КАРАКАЛПАКСКОГО МУЗЕЯ ИСКУССТВ ИМЕНИ И.В.САВИЦКОГО.....	204
<b>ЎЛМАСОВ А. Ф.</b> ЭРМИТАЖ РЕСТАВРАТОРЛАРИНИНГ ЎЗБЕКИСТОНДАГИ ФАОЛИЯТИГА ДОИР.....	209
<b>ПЕРЕМКУЛОВ Ж. А.</b> XIX АСР ОХИРИ – XX АСР БОШЛАРИДАГИ ТОШКЕНТЛИК ИЛМ-ФАН НАМОЁНДАЛАРИ.....	214
<b>BOYMIRZAYEV S.</b> O‘ZBEKISTON TARIXI DAVLAT MUZEYIDA SAQLANAYOTGAN ARXEOLOGIK ASHYOLARNING XUSUSIYATLARIGA OID BAZI MASALALAR.....	218
<b>ЎРОЛОВА М.М.</b> ЎЗБЕКИСТОНДА ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИ ИШТИРОКЧИЛАРИНИ ХОТИРЛАШ .....	223
<b>БЎРИЕВ Т. Х.</b> ШАХМАТНИ ВАТАНИ ҲИНДИСТОНМИ?... ..	227
<b>DALIYEVA N.</b> SAMARQAND MUZEYINING BRONZA OYNALARI KOLLEKSIYASI.....	234
<b>ХАЛИЛОВ Ж.</b> ЁҶОЧГА БИТИЛГАН САЊЪАТ .....	241
<b>YUNUSOV M.</b> SAMARQAND VILOYATINING ARXEOLOGIK MEROSIGA BO‘LGAN QIZIQISHNING YUZAGA KELISHI (XIX ASR OXIRI). .....	248
<b>O‘RINBOYEVA M. Y.</b> ZARAFSHON VOHASINING GEOLOGIK TUZILISHI VA MUZEY ZALLARIDAGI GEOLOGIK TOSHLAR HAQIDA .....	255
<b>ABDULLAEVA D. A.</b> XX ASRNING IKKINCHI YARMIDA MANG‘IT HUKMDORLARI QARORGOHINING TA‘MIROTIDAGI MUAMMOLAR.258	
<b>ТО‘УЧИБОВЕВ В.В., ВОБОЖОНОВА Ch., ОМОНОВ М.</b> MUZEY- QO‘RIQXONALAR KOMPLEKSI - ZAMONAVIY MUZEYLAR SIFATIDA (PETROGLIF YODGORLIKLAR MISOLIDA).....	261
<b>MUXAMEDOVA M. S.</b> YAQIN O‘TMISH MEROSINING RASSOMLAR IJODIDAGI TALQINI .....	266
<b>КАРИМОВ З.</b> ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИ ДАВРИ ТАРИХИНИ АБАДИЙЛАШТИРИШ:»ҒАЛАБА БОҒИ» ЁДГОРЛИК МАЖМУАСИ	